

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**"O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA  
XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI"**

**mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
materiallari**

**2023-yil 19-oktabr**

**Toshkent – 2023**

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. Ona tili (1-11-sinf) 10-b
- Mavlonova R., Abdurahimova D. Pedagogik mahorat -T., "Fan va texnologiya", 2009, 176 bet.
- Расулов Р. "Тил тараккӣёт мезони" Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2005. №1. Б.32.
- Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 6-sinf uchun darslik. Toshkent – 2022
- Отамуродова, Д. Р. Fransuz tili darslarida talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda dialogning roli / Д. Р. Отамуродова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 1 (396). — С. 308-310. — URL: <https://moluch.ru/archive/396/87618/> (дата обращения: 18.10.2022).
- Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –Б.19
- Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1991. –№4. – 76-модда.
- Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 1997 й. 2-сон, 36- модда // Ўзбекистон Республикаси 20.08.1999 й. 832. I-сон, 12.12.2003 й. 568- II-сон, 30.04.2004 й. 621-II-сонли қонунлар билан ўзгартиришлар киритилган
- ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОХЛИ ЛУФАТИ.1-жилд. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 559-б.

## O'QUVCHILAR YOZMA NUTQINI O'STIRISHNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI PSYCHOLINGUISTIC FOUNDATIONS OF DEVELOPING STUDENT'S WRITTEN SPEECH

Arolova Nafisa\*

*Annotatsiya: Yozuv - har bir xalqning ma'naviy boyligi. Ayniqsa, til o'zlashtirishda yozma nutqning o'rni beqiyos. Yozma nutq barcha til vositalari o'zlashtirilgandan so'ng paydo bo'ladi. Bugungi kun til ta'limidagi dolzarb vazifalardan biri o'quvchilarни savodxon qilib tarbiyalashdir. Ijodiy yozma nutqning o'sishi ijodiy tafakkur o'sishi bilan aloqador.*

*Kalit so'zlar: til o'zlashtirish, mental leksikon, savodxonlik, yozma nutqning shakllanishi, ijodiy yozma nutq.*

*Abstract: Writing is the spiritual wealth of every nation. Especially, the role of written speech in language acquisition is incomparable. Written speech appears after all language tools have been mastered. One of the urgent tasks in language education today is to raise students to be literate. The growth of creative written speech is related to the growth of creative thinking.*

*Keywords: language acquisition, mental lexicon, literacy, the formation of a written speech, creative writing.*

Yozma nutq nutqiy faoliyat ko'rinishlaridan biri bo'lib, u yozish va o'qishni o'z ichiga oladi va eshitish va so'zlashga qaraganda nutqiy faoliyatning murakkab turi sanaladi. A.R.Luriya ta'kidlashicha, yozma nutq hech qanday qo'shimcha tasvir vositalariga ega emas" [Luriya A.R.,2009:200]. Bu jihatdan u hech qanday suhbatdoshni ko'zda tutmasligini ko'rsatadi. Fikrni nutqiy jumlalarda kodlash, yozma nutqda ong ostida kechadi. Yozma nutq hech qanday qo'shimcha vositalarga, ya'ni jest, mimikalarga ega bo'lmasa-da, o'zida grammatik to'liqlikni aks ettiradi va bu to'liqlik uning tushunarligini ta'minlaydi. Shu tarzda yozma nutqda aks etgan barcha axborot grammatik til vositalari yordamida amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqadiki, yozma nutq maksimal darajada sinsemantik, til vositalari esa aytirilgan xabarni yetkazishga yordam beradi. Yozma nutqni tushunish og'zaki nutqni tushunishdan keskin farq qiladi. Yozma nutqni har doim qayta o'qish, aniqlashtirish mumkin, yozma nutqda bunday imkoniyat

\*stajor-o'qituvchi: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. E-pochta: nafisa@aro.lova@gmail.com.

yo'q [Luriya A.R., 2002:10]. Yozma nutqning og'zaki nutqdan yana bir psixologik farqi ularning kelib chiqishi, ya'ni ontogenezidadir. L.S.Vigotskiy yozma nutq og'zaki nutq bilan chambarchas bog'liqligini yozadi, biroq yozma nutq bosib o'tgan yo'l og'zaki nutq tarixida kuzatilmaydi. Yozma nutq shunchaki og'zaki nutqning tarjimasi, yozish ko'nikmasini va texnikasini egallahshdir" [ Leontiv A.A., 1999: 90].

A.R.Luriya ta'kidlashicha, og'zaki nutq kattalar va bolalar o'rtasida muloqot vositasida shakllanadi va bu "simpraktik omil" deb ataladi. Yozma nutq umuman boshqa kelib chiqish va boshqa strukturaga ega. Agar bolada og'zaki nutq 2-3 yoshda shakllansa, yozma nutq 5-6 yoshda ta'lim olish natijasida shakllanadi [Jluriya A.R., 182.]. Yozma nutq motivi ham bolada og'zaki nutq motividan kechroq uyg'onadi. Pedagogik tajribalardan ma'lumki, bunday motivni bolada hosil qilish nihoyatda qiyin. Yozma nutq yozish uchun lozim bo'lgan barcha til vositalarini o'zlashtirgandan so'ng paydo bo'ladi. Dastavval, yozuv ko'nikmasi harflarni yozish, keyinchalik so'zlarni yozish monologik va dialogik nutqdan uzilgan so'zlarni mashq qilishdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda asosiy diqqat va intellektual tahlil yozuv va o'qish texnikasini egallahga qaratiladi va bolada o'qish va yozish ko'nikmasi shakllana boshlaydi. Yoza oladigan bola nafaqat fikrini yo'naltira boshlaydi, ularni tashqi vositalar tovush, harf va so'z yordamida tashqariga chiqara boshlaydi. Bolada eng muhim bosqich fikr ifodalash boshlanadi. Yozma nutq bola uchun uzoq davr mobaynida o'rganish predmeti bo'ladi va keyinchalik avtomatlashadi. Yozma nutq ifoda vositalarini aniqlash, tahlil qilish yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Yuqoridaqilardan kelib chiqadiki, yozma nutq taraqqiyotida mavhumlik mavjud. Yozma nutq fikrdan o'tkaziladi, talaffuz qilinmaydi, bu ikki nutq ko'rinishini farqlovchi asosiy xususiyatlardan biridir. Yozma nutq shakllanishiga ko'ra qiyinroq. Yozish faoliyatining ushbu jihat yozma nutqqa tilning ikki sathida lingvistik va psixologik nuqtayi nazardan yondashish imkonini beradi.

Yozma nutq o'zida fonematik sathni, ya'ni alohida-alohida tovushlarni topish, ularni qarama-qarshi qo'yish, alohida tovushlarni harflarda kodlash, alohida tovush va harflardan butun so'z hosil qilishni aks ettiradi. Bu og'zaki nutqda leksemalar ko'rinishida, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish asosida kechadi. Dastavval, yozma nutq o'zida sintaktik sathni aks ettiradi, og'zaki nutqda esa ong ostida joylashadi. [ Vigotskiy L.S., 1999: 254.] Yozma nutq jarayonida inson ongdagi frazalarni aks ettirmaydi, balki o'zining grammatik va sintaktik qarashlarini, ko'nikmalarini aks ettiradi. Yozma nutqning og'zaki nutqdan yana bir muhim farqi shundaki, u "yoqiq grammatika" asosida mavjud bo'ladi. Bu og'zaki nutqda grammatik noto'liqlik shaklida namoyon bo'ladi, yozma nutqda esa bunday holat mavjud emas. [ Gluhov V., Kovshikov V., 2007: 145 ]

Yoqiq yozma nutqda grammatik sathning murakkab shakllaridan foydalilanadi. Masalan, murakkab qo'shma gaplar. Ular og'zaki nutqda deyarli uchramaydi. Yozma nutq monologik ko'rinishda bo'lib, o'zida til birliklari va matn ko'rinishini aks ettiradi. Yozma nutqni har tomonlama tadqiq qilgan L.S.Svetkova uning o'ziga xos jihatlarini qayd etadilar. Yozma nutq og'zaki nutqqa nisbatan butun. Og'zaki nutqdagi tovushli shakl avtomatlashgan, yozuv o'qish jarayonida analiz va sintez jarayoni yuz beradi. Sintaktik frazalar yozma nutqda xuddi uning fonemalari singari aks etadi. [ Svetkova L.S., 1969: 19.] Yozma nutq yozish uchun lozim bo'lgan barcha til vositalarini o'zlashtirilgandan so'ng paydo bo'ladi. Bugungi kun til ta'limidagi dolzarb vazifalardan yana biri o'quvchilarni savodxon qilib tarbiyalashdan iborat. Ona tili darslarida yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, unda savodxonlik, fikrni aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etish, ijodiylilik muhim jihat hisoblanadi. O'quvchilarning ko'cha-ko'nda, oila davrasida hatto ayrim darslarida ham og'zaki muloqotda bo'lishi yozma nutqqa nisbatan og'zaki fikr yuritishi ko'p hollarda yaxshi bo'ladi. Yozma nutq savodxonligi o'quvchidan o'zining fikr-qarashlarini tilning adabiy til me'yorlariga rioya etgan holda ifodalashni talab etadi. Imlo me'yorlari nutqiy savodxonlikni belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi asosidagi yozuv me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ga tayanadi. So'z va qo'shimchalarni to'g'ri yozish, ajratib va

qo'shib yoziladigan so'z hamda so'z shakllarini bilish, bosh harflar bilan yozilishi kerak bo'lgan so'zlarni farqlash kabi amallarni o'zlashtirmasdan turib yozma savodxonlikka erishib bo'lmaydi. O'quvchilarining imlo qoidalarini bilishi bu ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishdagi ilk qadamlardan biridir. Matn va lug'at ustida ham nafaqat so'z boyligini kengaytirishga, balki yozma savodxonlikning oshishiga xizmat qiladi. Matndagi so'zlarni talaffuz va tafakkur qilgan o'quvchilarda ravon jumlalar tuza olish, yozma nutq madaniyatiga amal qilish kabi intellektual fazilatlar o'sadi.

Yozuv har bir xalqning ma'naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o'ziga xos ko'rinishi sanaladi. Yozma nutqda tinish belgilarining to'g'ri qo'llanishi ham savodxonlikning muhim ko'rinishlaridan hisoblanadi. Tinish belgilari bilan bog'liq xatolarni bartaraf etishda vizual holda matnlar bilan ishlash o'z samarasini beradi. Sababi inson ma'lumotlarni 80% ko'rish, 20% eshitish orqali qabul qiladi.

O'rta ta'limda qo'llaniladigan yozma nutq shakllari diktant, bayon, insholardan iborat. Bayon va inshoda modallik ifodalananadi. Ya'ni unda o'quvchi emotsiyalari, psixikasi va lisoniy qobiliyatga bog'liq jihatlari ham ochib beriladi. O'quvchilarining ilmiy mavzuga doir insholar yozishi jarayonida ularda ijodiy yozma nutq shakllanib boradi. Avvalo, ijodiy yozma nutq rivojlanishi uchun unda ijodiy tafakkurning o'sishiga ahamiyat berish kerak. Ijodiy yozma nutqi ravon o'quvchilarda ijodiy bayon va insholar yozishga bo'lgan qiziqish ham tengdoshlariga qaraganda yuqori bo'ladi. Ixtiyoriy mavzu doirasida ham ular o'z iqtidorlarini namoyon qila oladilar. Reja tuzish, epigraf tanlash, eng muhimi, jumani uslubiy-funksional jihatdan to'g'ri tuza oladi. Bunday o'quvchilar o'qigan matn mazmunini oson tushunadi, leksik birliklarni tez o'zlashtiradi. She'rlarni yodlab qolish qobiliyati ham yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ularda ijodiy yozma nutqning shakllanishi sinfdan-sinfga o'tgan sari rivojlanib boradi.

Yozma nutq obyekti badiiy matn hisoblanadi. Badiiy matn bilan ishlashning yozma nutq uchun ahamiyati yuqori. Badiiy matn tuzilishiga ko'ra kichik (mikro) va katta (katta) hajmli matnlarga bo'linadi. Mazmuniga ko'ra hikoya, izoh, xabar, buyruq mazmunli, tasviriy va didaktik matnlarga ajraladi.

[Yo'ldoshev M.,2008:92.] Ba'zan mutaxassis yozuvchi va maktab o'quvchisining yozma nutqi o'rtasida yosh va hayotiy tajriba jihatdan farq seziladi. Yozuvchi nutqidagi ayrim jumlalar o'quvchi uchun tushunarli bo'lmay ham qolishi mumkin. Til ta'limidagi bunday nomutanosiblik o'quvchi til malakasining rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Natijada, o'quvchi o'z mustaqil fikrini bayon qilmay, tayyor jumalardan foydalanishga harakat qiladi. Balki, bola yozishga bo'lgan rag'batini yo'qotib qo'yishi yoki umuman paydo qilmasligi ham mumkin.[ Azimova I.,2008: 19] O'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishga mo'ljallangan mavzular hayotiy voqealarga yo'naltirilgan, dolzarb, muhokamali, qiziqarli bo'lishi kerak.

O'quvchilarining yozma savodxonligini oshirish uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak deb o'ylaymiz:

- Ona tili darslari davomida ta'limiy diktantlar olish.
- Darslarda ko'rgazmalilikka alohida e'tibor berish.
- Savodxon o'quvchilarni rag'batlantirib borish.
- "Husnixat daftari"ni tashkil etish.
- "Talaffuzi va yozilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'ati"ni yaratish.
- Muhokama va munozara matnlar yaratish.
- Notanish so'zlarning lug'aviy ma'nosini o'quvchilarining o'zlariga topshirish va ularda lug'atlar bilan ishlash malakasini oshirish.
- Imlo qoidalari bilan bog'liq test topshiriqlari bilan muntazam shug'ullanish.

Agar og'zaki nutq uzoq vaqt anglanmagan holda o'zlashtirilgan bo'lsa, yozuv esa boshidanoq anglangan jarayon hisoblanadi. Ya'ni yozma nutqning tuzilish shakllari boshidanoq anglangan harakatlar tarzida kechadi va asta-sekin ravon kechuvchi malakaga aylanadi. Yozma nutq – muarakkab jarayon. Unga yetib borguncha o'quvchi bir necha – tovushni ajratish, to'g'ri grafik belgisini topish, harfni eslab qolish, to'g'ri tasvirlash, so'z, jumla yozish kabi jarayonlarni avval ongli, so'ngra avtomatik ravishda bajarishga kirishadi. Ta'limning birinchi yilida o'quvchi

yozganda avval so'zni tinglaydi, keyin ovoz chiqarib ichida pichirlab gapiradi. Bu "ichki eshitish" deyiladi. Pichirlab qaytarish tovushlarni aniqlashtirish, yaqin tovushlarni bir-biridan ajratish va yetarlicha aniq bo'limgan tovushlarni aniq fonemalarga aylantirish imkonini beradi. Kattalarda esa yozuv avtomatlashgan ko'nikmaga aylanadi.

Yozuv jarayonining birinchi bosqichi yoziladigan so'zning tovush tarkibini tahlil qilish hisoblanadi. Bu jarayon diktant yozayotganda yaqqol seziladi. So'zlar bo'g'in larga ajratilmasdan talaffuz qilinsa bu jarayon murakkablashadi. Odatda, bunday qiyinchiliklar oson bartaraf etiladi. Yozishni o'rganayotgan o'quvchilarda harfdagi zarur tartibni saqlash va harflarni tushirib qoldirish harfdagi kerakli shaklni saqlab qolishdagi qiyinchilik tufayli emas, balki yoziladigan so'z elementlarining tovush izchilligini saqlab qolishdagi qiyinchilik tufayli yuzaga keladi.[ Luriya A.R., 2002: 10. ] Nutqning yaratilishi ham, uning qabul qilinishi ham shaxsning mental leksikonidagi so'zlar ifodalovchi ma'noga bog'liq. Har bir shaxs bir so'zning ma'nosini turli kognitiv bilimlarga asoslanib, idrok qiladi va shu sababdan matnni idrok qilish hammada har xil kechadi.[ Xudoyberanova D., 2013: 41]

Yozma nutq savodxonligiga erishish uchun dars davomida lug'atlar bilan ishlashning ahamiyati katta. Lug'at yozma nutqning alifbosi kabitdir. O'quvchi lug'at bilan ishlash jarayonida o'z va o'zga tillarda mavjud so'zlar bilan tanishadi, hali tanimagan leksik birliklarni o'zlashtiradi, ularni alifboli, uyali, mavzuli kabi guruhlarga joylashtiradi. Tarixiy va yangi so'zlarni ajratish, adabiy tildan sheva birliklarini topish, ilmiy atamalarni farqlash, ibora va maqollardagi so'zlarning izohlarini o'zlashtirish natijasida so'z boyligi oshadi. Yozuv tilning libosidir. Har bir tilning yozuvi o'sha tilga muvofiq bo'lishi kerak. Bir til uchun mos tushgan yozuv ikkinchi til uchun muvofiq kelmasligi mumkin. Yozuv til egasining tarixiy taraqqiyoti natijasida shakllangan bo'ladi.

Til ta'limida yozma nutqni o'stirishda psixolingvistik tahlillardan foydalanish muhim. Yozma topshiriqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. O'quvchi maktabga kelganda, keng lug'at boyligiga ega bo'lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo'yish, umumlashtirish, guruhash usullaridan foydalanishni bilmaydi. Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiysini ajratishga, so'z bilan aniq ifodalashga o'rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o'rgatish bilan bilimini material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o'stirish hisoblanadi.

Mantiqiy mashqlar bolalarning so'z boyligi va tilining umumiyligi o'sishida katta ahamiyatga ega bo'lib, lug'at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog'lab olib boriladi. Logik mashqlar juda xilma-xil:

Har bir darsni o'ziga xos usul bilan o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Har bir zamnaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta, ijobjiy natijaga erishiladi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ular qalbida vatanzavarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu yo'lda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi.

Bugungi ta'limda o'quvchi faoliyatini jonlantirish, uning qobiliyatini o'stirish, mustaqil amaliy ish yuritish malakasiga ega qilish muhim hisoblanadi. Ma'lumki, ona tili darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi yangi usullarini topish davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Noan'anaviy darslarni tashkil etishda esa interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda

yondashuvga o'rgatish kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Quyidagi matnlar bo'yicha tayyorlangan test topshiriqlari o'quvchilarni mantiqiy o'ylashga majbur etadi.

Tajriba sinovi Toshkent shahri Sergeli tumaniga qarashli 76-maktabda olib borildi. Tajriba sinoviga 8-A sinfining 15 nafar o'quvchilari qatnashishdi. Sinov davrida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradigan topshiriqlar berildi. Tajriba davomida olingen har bir mashg'ulotlar tekshirilib, kerakli ko'rsatkichlar orqali baholanib, tahlil qilindi.

Tajriba uchun "Manqurtlik tarixi" matni tanlab olindi. O'quvchilarga tarqatma qilib matn tarqatildi. Matnda ayrim o'rinnlar bo'sh qoldirilgan. Tajriba ishtirokchilari o'qib, mazmunga mos so'zlarni yozishlari lozim.

Chingiz Aytmatov hikoya qiladi:

Qadim zamonlarda, qirg'izlar bilan qalmiqlar orasida \_\_\_\_\_ qonli urushlar ketayotgan davrlarda raqiblar mol-holni talon-taroj qilishdan tashqari, odamlarni \_\_\_\_\_ olib ketardilar. So'ng asirlar qul sifatida \_\_\_\_\_. Asir xojasi qaramog'ida podachilik qilib yursa-da, lekin ertami-kechmi baribir qochib ketishi mumkin edi. Dunyoda yaxshi odamlar ko'p – asir qulay fursat topib, biror kishidan qarindosh-urug'lariga o'zi haqida \_\_\_\_\_ yuborishi hech gap emas. Jismonan voyaga yetgan \_\_\_\_\_ paytida asir olingen odam besh yil, ko'pi bilan o'n yil tutqunlikka bardosh beradi. Keyin har qanday inson bolasi kabi uning ko'nglida asta-sekin \_\_\_\_\_ uyg'onadi, qo'llari o'z-o'zidan qurol-yarog' izlab qoladi, xayolida qo'zg'olon pishib yetiladi. Bo'lajak qo'zg'olonchini oldindan tushovlab qo'yishning birdan-bir yoki birlamchi vositasi – uni manqurtga aylantirib saqlash hisoblanardi. Buning uchun, eng avval, asirning sochlari ustارада qirqib olinardi. So'ng asirning boshiga yangi so'yilgan tuya yoki mol terisidan qiyqim kiydilardi. Mol terisining qiyqimini qirg'izlar "shiri" deyishardi. Terining chakkaga tushib turgan qismi gir aylantirilib, xom teridan to'qilgan chilvir bilan bog'lanadi. Asir ikki tomonlama azob iskanjasiga tushib qoladi. Dastlab, asta-sekin quriy boshlagan teri bujmayib, bosh chanog'ini \_\_\_\_\_; so'ngra yangi o'sib chiqqan soch tolalari terini teshib o'tishga ojizlik qilib, yo'nalishini o'zgartiradi va minglab ignalar bosh terisiga sanchiladi: shu tarzda vaqt o'tishi bilan asab tizimi ishdan chiqadi va xotira \_\_\_\_\_. Boshiga shiri kiydirilgan asirning qo'l-oyoqlari bog'lanib, suvsiz-ovqatsiz holda \_\_\_\_\_ quyosh ostiga tashlab qo'yiladi. Bir-ikki haftadan so'ng asir o'lib qolardi, yo manqurtga aylanardi. Agar o'lsa, azoblardan qutulib ketardi; tirik qolsa, ish quroliga aylanardi: o'z ismini ham, nasl-nasabini ham, o'tgan kunlarini ham eslay olmasdi, faqat xo'jayinning xohish-irodasiga \_\_\_\_\_ kerakligini bilardi, xolos.

#### Tajriba-sinovida qatnashgan o'quvchilarning javoblari 1-jadval

1	Tinmay	Asir	Qolishadi	Ma'lumot	Odam bilan
2	Qattiq	Asirga	Foydalanishar Di	Ma'lumot	Yetuk
3	Shafqatsiz	Asirga	Ishlatiladi	Ma'lumot	Navqiron
4	Jiddiy	Asir qilib	Ko'rindilar	Xabar	Kishi
5	Tinimsiz	Qullikka	Ishlab	Xabar	Yosh
6	To'xtovsiz	Asir qilib	Sotib yuborilardi	Xabar	Navqiron
7	Tinmay	Qullik Ka	Ishlatiladi	Xat	Navqiron
8	Shafqatsiz	Asir	Ishlatildi	Xat	Balog'at
9	Tinimsiz	Qul sifatida	Qolishadi	Ma'lumot	Yosh
10	Daxshatli	Asir qilib	Foydalanishar Di	Ma'lumot	Yetuklik
11	Bo'layot Gan	Qullik Ka	Ishlatiladi	Ma'lumot	Navqiron
12	Tinmay	Asir qilib	Ko'rindilar	Xabar	O'smirlik

o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi. Mantiqiy mashqlar sermazmun bo'lishi, o'quvchilarning tajribasi bilan bog'lanishi, ularni to'g'ri fikrlashga o'rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishga xizmat qilishi lozim. O'quvchi nutqining muhim ko'rsatkichlaridan biri uning so'z boyligidir. Pedagogik adabiyotlarda berilgan ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so'zni bilishlari lozim. Ammo ona tili mashg'ulotlarida fikrni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilish zaruriyati tug'ilganda o'quvchilarda so'z boyligining yetishmasligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so'zlarni takroriy qo'llash, berilgan so'zni ma'nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma'noligi bilan almashtira olmaslik o'quvchilarning so'z boyligi yetarli emasligidan dalolatdir.

Ma'lumki, til ta'limida o'qish, yozish, so'zlash malakasining shakllanishi, o'quvchilar dunyoqarashining kengayishi, ijodiy fikrlashining rivojlanishida lug'at boyligi zarur omildir. O'quvchilarda nutq unsurlarini yaxshi o'zlashtirishlari uchun nafaqat alohida jumlalarni, balki to'liq matnlarni tushunishlari va yarata olishlari kerak bo'ladi. Nutq shakllari konteksning mazmuniga qarab joylashtirilgandan keyingina to'liq tushunarli bo'ladi. Darsliklardagi matnlar grammatikaning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish va namoyon qilishni osonlashtirish uchun maxsus ishlab chiqiladi. Matnlarda uchraydigan notanish so'zlar va sintaktik murakkablik o'quvchining matnlarga tushuna olmasligiga sabab bo'ladi. O'quvchilarga tushunishda qiyinlik qilmaydigan matnlarni tanlash lozim. Yana juda oson ham bo'lmasligi kerak. Ayni paytda matn tarkibida o'quvchi uchun yangi so'zlar ham bo'lishi kerak. O'quvchilar matnni eshitib tushunish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin Ma'lumki, semantik til ko'nikmalari ma'nodosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, paronim so'zlarni qamrab oladi. Semantika bu – so'zlarning ma'nosi, va ularning bir-biriga bog'liq qismi. Biz so'zlarni ma'nolariga qarab tarmoqlarga ajratamiz. Tilning semantik qismi bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelgan o'quvchilar so'zlar o'rtaida aloqa o'matish va ularni bir-biriga bog'lashda muammoga duch kelishi mumkin. Buning natijasida o'quvchi matn persepsiyasida to'g'ri kelmaydigan so'zni tanlashi mumkin. O'quvchi semantik til ko'nikmalarini yaxshi egallasa, o'z fikrini aniq va mazmunli ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin. Nutqni qabul qilib uni tushunish darajasi aynan semantik ko'nikmalarni qay darajada egallanishi bilan bog'liqidir. Xorijlik tadqiqotchilar o'quvchilarda matnning semantik jihatlarini yaxshiroq o'zlashtirishda quyidagi strategiyalarni ishlab chiqishgan:

[ Department of Curriculum Management Educational Assessment Unit, English – Listening Comprehension – Teacher's Paper, 2014: 21]

- O'quvchilarga so'z boyligini oshiradigan savollarga javob berish uchun, albatta, vaqt bering;
- Agar o'quvchi matn asosida biror so'zni ishlataligani bo'lsa, u so'zning semantik ta'riflarini berishga o'rgating, masalan, "maymun va banan".
- O'quvchi qiyinchiliklarga duch kelsa, ularga so'zlarni tushuntirib, izohlashga undang, chunki bu ularning semantik aloqalarini kuchaytirishga va maqsadli so'zni anglashga yordam beradi.

Matndan foydalanishning ham o'z afzalliklari bo'ladi. Bu orqali o'quvchilarga matnlardagi nafaqat grammatik elementlarning ma'nosini bilib olishga imkon berish, balki ularning tafakkur olamini rivojlantirish ham mumkin. Ayniqsa, matn yuzasidan tuzilgan testlar bilan ishlash natijasida o'quvchilar oлган bilimlarini baholay olishga o'rganadi. Test tizimi har doim ta'limga o'z ta'sirini o'tkazgan. Shu sababdan test orqali tekshirilayotgan ko'nikmalar ta'limning asl mohiyatidan yiroq bo'lmasligi kerak. Agar test tizimi yodlashni tekshirsa, xotiraga zo'r bersa, ta'limdan faqat faktlarni, raqamlarni va formulalarni yod oлgan, ammo fikrlashdan yiroq, tanqidiy tahlil, kreativlik singari ayni zamон uchun muhim ko'nikmalarni bilmaydigan avlodlar yetishib chiqadi. Xalqaro darajadagi PISA, PIRLS hamda TIMS testlari orqali ham o'quvchilarning ijodiy va kreativ fikrlashi tekshiriladi. Til ta'limida testlar bilan ishslash o'quvchilarning tez va mantiqiy fikrlashini o'stirish, bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish, noto'g'ridan to'g'rini ajratish, fikrini ixcham ifoda qilish, tanqidiy va tahliliy

13	Jiddiy	Qul sifatida	Sotib yuborilardi	Xabar	Yosh
14	Yuz berayotgan	Asir qilib	Sotib yuborilardi	Xabar	Navqiron
15	Beshafqat	Asir qilib	Ishlatiladi	Xat	Navqiron

2-jadval

1	Vahshiylit	Qisadi	Yo'qoladi	Sahroda	Ko'ra
2	Umid	<b>Siqib</b>	Yo'qoladi	Cho'lga	Ishonib
3	Yovuzlik	Ezadi	O'chib ketadi	Sahroga	Ko'ra
4	Yovuzlik	<b>Siqadi</b>	Pasayadi	Qiynab	Ko'nish
5	Yovuzlik	Ezib qo'yadi	Yo'qoladi	Cho'lga	Ishonib
6	Yomonlik	<b>Siqadi</b>	Sustlashadi	jazirama	Xizmat Qilishi
7	Yolg'izlik	<b>Siqadi</b>	Yo'qoladi	Issiq	Yashashi
8	Nafrat	<b>Siqadi</b>	Yo'qoladi	Sahroda	Bo'ysu Nishi
9	Vahshiy Lik	Ezadi	Yo'qoladi	Sahroda	Ko'ra
10	Umid	<b>Siqib qo'yadi</b>	Yo'qoladi	Cho'lga	Rozi bo'lib
11	Yovuzlik	Ezadi	Yo'qoladi	jazirama	Qarab
12	Norozilik	<b>Siqadi</b>	Pasayadi	Chidab bo'lmas	Bo'ysu Nishi
13	Yovuzlik	Ezib qo'yadi	Unutiladi	Anomal	Bosh egib
14	Yomonlik	<b>Siqadi</b>	Yo'qoladi	Qiynab	Bo'ysu Nishi
15	Yolg'izlik	<b>Siqave Radi</b>	Yo'qoladi	Yondiradigan	Bo'ysu Nishi

Tajribadan so'ng xulosa shu bo'ldiki, o'quvchilar hech qiyinchiliksiz so'z va so'z birliklarini topishdi. Jadvalda ajratib ko'rsatilgan so'zlar matnda keltirilgan so'zlar bilan bir xil. O'quvchilar tomonidan keltirilgan boshqa variantlar ham matn mazmunidan uzoqlashib ketmaydi. Masalan, birinchi ustundagi **tinimsiz** so'ziga teng qiymatdagi (to'xtovsiz, tinmay) so'zlar keltirilgan. Xuddi shunday holat beshinchi ustunda ham keltirilgan. **Navqiron** so'zini balog'at, yetuklik, yosh kabi so'zlar bilan almashtirsak, matn mazmunida sezilarli o'zgarish bo'lmaydi. Tajriba ishtirokchisi nutqida qaysi biridan ko'proq foydalansa, bu uchun to'g'ri javob hisoblanadi. Chunki uning lisoniy qobiliyati **navqiron** so'zini berishga qodir emas. Kesim gapning markazi bo'lGANI bois, o'quvchilar kesim topish so'rالgan gaplarda markaziy bo'lakni deyarli to'g'ri topishgan. 2-jadval ikkinchi va uchinchi ustunlarda javoblari keltirilgan. O'quvchilarining xatoga yo'l qo'yishlarining sababi nafaqat ularning bilim darajasiga, balki o'sha damdagi psixik holatlariha ham aloqadorligini unutmaslik lozim.

Xulosa qilib aytganda, har qanday dars psixolingvistik jarayondir, chunki bola unda til vositasida berilgan ma'lumotni dekodlaydi yoki o'z bilimini ifodalash uchun kodlaydi. O'rta ta'limda ona tili mashg'ulotlari tinglab va o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilmog'i kerak.

1. Yozma nutq fikrda o'tkaziladi, talaffuz qilinmaydi. Ushbu jihat yozma nutqqa lingvistik va psixologik nuqtayi nazardan yondashish imkonini beradi. Yozma nutq bola uchun uzoq davr mobaynida o'rganish predmeti bo'ladi va keyinchalik avtomatlashadi. Yozma nutq ongli jarayon hisoblanadi. Til belgilari va ulardan yozma nutqda foydalanish ongli ravishda yuz beradi.

2. Og'zaki va yozma nutq tafakkur jarayonini boyituvchi vosita. Shu sababdan dars davomida o'quvchilarni to'g'ri jumla tuzishga, ravon mulohaza qilishga, fikr yuritish va yozishga o'rgatib borish zarur. Ayni damda uzoq yillardan buyon saqlanib kelgan bayoniylidkan chekinib, ijodiylik orgali mustaqil fikrlashga o'quvchilarni yo'naltirishga ham e'tibor berish lozim.

3. O'quvchilar uchun yozilgan matnlarning yosh kategoriyasi va o'qishlilik darajasini aniq, obyektiv belgilab beradigan mezonlarni ishlab chiqarish zarur.

A. O'zbek tilining izohli va imlo lug'atiga kiritilgan so'zlarni o'quvchilarning yoshi, tushunish darajasiga muvofiq tarzda tasniflash.

B. O'quvchilar uchun yozilgan matnlarning yosh kategoriyalarini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish.

C. O'quvchilar uchun yaratilgan matnlarning o'qishlilik darajasini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish.

D. O'quvchilar uchun yozilgan matnlar yuzasidan o'qib tushunishni baholovchi mezonlarni ishlab chiqish.

4. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak deb o'ylaymiz:

A. Ona tili darslari davomida ta'limiy diktantlar olish.

B. Darslarda ko'rgazmalilikka alohida e'tibor berish.

C. Savodxon o'quvchilarni rag'batlantirib borish.

D. "Husnixat daftari"ni tashkil etish.

E. "Talaffuzi va yozilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'ati"ni yaratish.

F. Muhokama va munozara matnlar yaratish.

G. Notanish so'zlarning lug'aviy ma'nosini o'quvchilarning o'zlariga topshirish va ularda lug'atlar bilan ishlash malakasini oshirish.

H. Imlo qoidalari bilan bog'liq test topshiriqlari bilan muntazam shug'ullanish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Мышление и реч. Изд. 5, испр. – Издательство “Лабиринт”, – М.: 1999. – С. 254.
2. Глухов В., Ковшиков В. Психолингвистика. Теория речевой деятельности. – М.: Изд-во: ACT, 2007. – С. 145.
3. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. Высш. Учеб. Заведений.- 4-е изд., испр. – М.: Смысл; Издательский центр “Академия”, 1999, – С.90.
4. Лурия А.Р. Язык и сознание. Под редакцией Е.Д.Хомской. Изд-во Моск. Ун-та, – С.182.
5. Цветкова Л.С. О нарушении активных форм устной речи при динамической афазии. Вопросы психологии. 1969. – С.19.

### AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING TA'LIM SOHASIDAGI O'RNI (THE ROLE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE FIELD OF EDUCATION IN AFGHANISTAN)

Ehsanulla Quwanch\*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Afg'oniston tarixida o'zbek tilining Afg'on t'alim sohasidagi o'rni hamda bir asr orasidagi ta'limga tarixi o'rganilgan. Mamlakat hukumdori Amir Amomullohxon davridan to' eski Islom Respublika davrigacha o'zbek tilining ta'limga sohasida bo'lgan salbiy va ijobiy jarayonlari, Afg'oniston tarixida birinchi marta chopdan chiqqan maktab darslik kitoblari tadqiq etilgan. aynan so'nggi paytlarda Afg'onistonning eski Islom Respublika davrida o'zbek tilining ta'limga oliy ta'limga sohasidagi o'rni va o'zbek tilida chopdan*

\* Tayanch doktorant. TDO'TAU. E-pochta: ehsanullah.quwanch1@gmail.com

<i>Akbarova D.</i>	Effective efficiency in the development of an interactive learning model	371
<i>Muxtarova Sh.</i>	O'zlashma so'zlarining talaffuzi va imlosini o'rgatish jarayoniga integrativ yondashuv	374
<i>Hamraqulova G.</i>	Iqbol mirzo she'riyatida alliteratsiya	378
<i>Nasirov M.</i>	She'riy matnning assotsiativ maydon tahlili	382
<i>O'ranova Z.</i>	Muhammad yusuf she'riyatida onomastik metaforaning qo'llanishi	386
<i>Yusupova A.</i>	Kognitiv metaforaning dunyo tilshunosligida o'rganilishi	389
<i>Uzakova H.</i>	O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlar matnida "sadoqat" konsepti ifodasi	393
<i>Yodgorov J.</i>	Badiiy matnda undov	398
<i>Maxkamova G.</i>	Ko'chma ma'noli so'zlar orqali o'quvchilarning o'quvta'limiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	402
<i>Arolova N.</i>	O'quvchilar yozma nutqini o'stirishning psixolingvistik asoslari	409
<i>Ehsanulla Q.</i>	Afg'onistonda o'zbek tilining ta'lim sohasidagi o'mi	416
<i>Yaqubova Y.</i>	Nutqiy ta'sir ko'rsatish akti va uning tadqiqi	421
<i>Ho-Lim Song</i>	O'zbek tili tadqiqotlarida xalqaro fonetik alifbo (XFA) ning qo'llanishi	424
<i>Xaydarova X.</i>	Taqlidlarga berilgan illyustrativ misollar talqini (o'zbek tilining izohli lug'atlari asosida)	429
<i>Ergasheva L.</i>	O'zbek tilni xorijiy til sifatida o'qitishda gapirish ko'nikmasining ahamiyati	435
<i>Цагараева О.</i>	Фразеологические единицы дискурсивного потенциала формирующий развитие интеллект человека	440
<i>Rakhimova Ф.</i>	Развитие лингвистической компетенции с использованием занимательной лингвистики на уроках русского языка	443
<i>Azizova F.</i>	Zulfiya she'riyatida sintaktik parallelism	448
<i>Mirnosirova D.</i>	Bolalar nutqida leksik assotsiatsiyani yuzaga keltiruvchi lisoniy omillar	451
<i>Мамадалиева С.</i>	Социокультурные аспекты обучения русскому языку студентов – филологов	454
<i>Rajabov E.</i>	Communicative competence	457

### III. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI

<i>Yandashova T.</i>	O'zbek va jahon tilshunosligida go'zallik konseptining nazariy-eksperimental tadqiqi masalalari	459
<i>Толипова Д.</i>	Язык, возникающий как средство коммуникации человека, является частью маркированной и семиотической системой	465
<i>Juragobilova H</i>	O'zbek va fransuz tillarida metafora tasnifi	470
<i>Ибрагимова С.</i>	Процесс метафоризации в узбекской и русской антропонимии	473